



NAQSHBANDIYA TARIQATINING O'N BIR QOIDASI VA UNI TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA QO'LLASH

Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Texnologik ta’lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi

e-mail: maxbuba.xalmuxamedova71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15718894>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma’qullandi: 15-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 23-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

*Kompetentlik, Kasbiy
Kompetentlik, Haq, Xilvat Dar
Anjuman, Kalima, Zikr, Voqif
Bo’lmoq, So’Fiy.*

ABSTRACT

*Maqolada Naqshbandiya Tariqatining O'n Bir Qoidasi Va
Uni Talabalar Kasbiy Kompetentligini
Takomillashtirishga Qo'llash Masalalari O'Z Aksini
Topgan.*

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning zamonaviy metodik tamoyillaridan biri — har bir bilim, ko‘nikma va faoliyatni muayyan qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Shu asosda Naqshbandiya ta’limotida ilgari surilgan qadriyatlar zamonaviy pedagogik amaliyotda kompetent pedagog shaxsni yetishtirish uchun metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Naqshbandiya tariqati vositasida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishni eng avvalo uning qoidalari ya’ni rashhalarini o‘rganishdan boshlanadi. Bu rashhalarining sakkiztasi Bahouddin Naqshbandning uvaysiy ustozlari sanalmish Abduholiq G‘ijduvoniylar hazratlari tomondan va uchta Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgan. Ushbu qoidalarni hozirgi kunga tatbiq etish va talabalarining kasbiy kompetentligini oshirish sifatida metodologik tahlil qilish orqali ko‘rib chiqish joizdir. G‘ijduvoniylar va Bahouddin Naqshband hazratlari o‘n bir rashhada lo‘nda ifodalangan ta’limotni yaratganlar.

1. «Hush dar dam» (Ogohlik). Hush so‘z aql-hush, hushyorlik ma’nolarini, dam esa nafas ma’nosini bildiradi. Bu shiordan xar bir olingan va chiqarilgan nafasda xushyor bo‘lish, Allohni esdan chiqarmaslik ma’nosi o‘z aksini topgan. Ya’ni sufi har nafasida Allohni yod etib turishi lozim. “Unga amal qilish natijasida har bir inson o‘z hayoti davomida nuqsonlardan holi bo‘ladi, yuksak axloq sifatlarini o‘ziga singdiradi. Uning ichki dunyosi esa, g‘aflatdan holi bo‘lib, mukammallashadi.”

Bu qoidani bo‘lg‘usi talabalarimizning kasbiy kompetentligini oshirishga qaratib ekanmiz, har doim xushyor bo‘lib g‘aflatda qolmaslikni, o‘z kasbiy yetuklik darajasini oshirishda har bir bajarayotgan ishini mukammal o‘ylab bajarishni talab etadi. Shuningdek kelajakda o‘quvchilar bilan ishlaganda ham xamisha e’tiborli bo‘lish, har daqiqada ularni nazardan qochirmaslikni, ogoh bo‘lishni anglatadi. Nafasga xushyor bo‘lmoq insonni o‘zligini tanishga olib keladigan eshikning kalitidir. O‘zligini anglamagan inson-o‘zgalarni ham tushuna olmaydi.

2. «Nazar bar qadam» (Xushyorlik). Qadamga nazar solish qoidasi kishining hayotida qo'yadigan har bir qadami nazorat ostiga olinmoqligini ta'kidlaydi. Bu qoida o'zlikni tanishga, idora etishga qaratilgandir. Bunda inson har bir qo'yilgan qadamini, har bir so'zini va fe'li-xayolini nazorat qilib turmog'i kerak. Insonning o'z-o'zini nazorat qilishi esa uni komillika, Haqqa yetaklaydi. "Nazar bar qadam" uldirki, soliqqa yurganda va kelgonda shaharu sahroda va barcha yerda nazari po'shti poyida bo'lsun, tokim oning nazari parokanda bo'lmasun va durust ermas joyga tushmasun".

Bu qoidaga amal qilgan bo'lg'usi pedagog o'z kasbiy faoliyati davomida o'zini doimo nazorat qiladi, o'ylamasdan harakat qilmaydi, har bir bajargan ishi, gapirgan gapi, chiqargan qarorini, qadamini o'ylab bosadi. Bu hozirgi kunda pedagoglar uchun juda kerakli bo'lgan hislatlardan biridir. Zero pedagog o'z ma'naviyati orqali o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim, qadami nojoiz bo'lmasligi kerak. O'zini nazorat qilgan insongina komillikka erishmog'i mumkin.

3. «Safar dar vatan» (Harakatchanlik). Vatanga safar qilish bu shiorda har odamda asliga va Haqqa safar qilish ma'nosi ilgari surilgan, ya'ni har qadamda asl maqsadga — Haq tomonga yurish. "Safar dar vatan" ul tururkim, solik tabiati bashariyda safar qilur, ya'ni sifati bashariydan sifati malakiyga va safoti zamimadin sifoti hamidaga intiqol etar" Inson tirik ekan uning hayot yo'li safardan iboratdir. Bu safar yurish ma'nosida ham, Haqni tanish ma'nosida ham yuritiladi. Zero talaba o'z ustida tinimsiz ishlashi va komillik darajasiga yetishi uchun tinmay izlanadi. Haqni tanish bo'lg'usi pedagog uchun bilimning yuqori darajasiga yetishi va kasbiy kompetentlikka erishish uchun doimiy harakatda bo'lishni bildiradi. «Safar dar vatan» qoidasi, ichki chuqur ruhiy harakat bo'lib, unda inson o'z ichki olamida safar qiladi va bu harakat davomida inson o'zini anglay boshlaydi.

4. «Xilvat dar anjuman». (Jamiyatparvarlik) "Oydilarkim, "xilvat dar anjuman" bazohir boxalq va babotin bohaq. ...oydilarkim, nisbati botiniy bu tariqada ondog' tushubdurkim, dilning jam'iyati maloda va suvrati tafriqa ko'broq ondin tururkim xilvatda".

Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy hazratlari shunday deb yozadi: "Xilvat ham, uzlat ham ikki shaklda ko'riladi: zohiriy va botiniy.

Xilvat holining zohirdagi ma'nosi shuki, inson (o'z) nafsini o'rgangan narsalaridan ayirib, ma'naviy tuyg'ularning ochilishiga yo'l beradi; o'rinsiz fe'llari bilan xalqqa aziyat yetkazmasligi uchun o'zini chekka bir joyga olib, odamlardan uzoqlashadi"

Uning oddiy ifodasi jamoa ichida yakkalik yolg'izlik demakdir. Hazratdan «tariqatingizning asosi nimadan iborat?», deb so'raganlarida, "Xilvat dar anjuman ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq",-deb javob berganlar. Bu jumla «xilvat dar anjuman»ning mantiqiy arhidir. Xalq orasida Haq bilan birga bo'lish, ya'ni so'fiyning dunyoviy ish bilan mashg'ul bo'lishiga qaramay, el qatori bir inson sifatida yashashi, shu orqali ma'naviy holini atrofidagilardan maxfiy tutishini bildiruvchi bu qoida naqshbandiya tariqatining shioridir."

Jamoada, insonlar orasida bo'lsada yuragida, qalbida hamisha Allohga bo'lgan muhabbati bo'lmog'i lozimdir. Hozirgi kunda bu qoidani talabalarga ham qo'llash joizdir. Zero talaba doimo o'z ustida ishlamog'i o'zining ishida yuksak darajaga erishishi uchun tinmay o'qishi, o'rganishi kerak. His tuyg'ularini ko'rsatmasdan omma orasida ham o'z ichki kechinmalarini jilovlay olishi va kelajakda ustoz bo'lganda ham o'z muammolarini o'quvchilarga ko'rsatmasligi lozimdir.

5. «Yodkard» (Onglilik). Yod et. “yodkard” deb ataladi va til yoki dil zikri bilan bog‘liq masaladir. “Zikrdin maqsad uldirmek, ko‘ngil hamisha muhabbat va ta‘zim vaz‘i bila Haq subhonahu va ta‘ologa ogoh bo‘lsun”. Bu shiorda nafasini tutib turib til va dil bilan birdaniga tavxid zikrini qilish ko‘zda tutilgan. Zikrni faqatgina tilida emas, balki qalbi bilan aytish va buni nafas olmasdan qaytarish lozimligidir. Bo‘lg‘usi pedagoglar ham ustozlaridan olgan bilimlarni qunt bilan egallab, bu ishga chin ko‘ngildan ixlos bilan qarashlari, qiyinchiliklarni sabr va bardosh bilan yengishlari lozimdir. Bu ularni albatta kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishiga olib keladi.

6.«Bozgasht» (Malakalilik). So‘ngra o‘t. Buning ma‘nosi inson umrining foniyligi, undan albatta boqiy dunyoga qaytajakligi ta‘kidlanadi. Bu shiorda maqsad va matlab faqatgina Allohning rizosi bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Bunda solix zikr qilib bo‘lgach “Iloxi anta maqsudi va rizoka maqsudi” deydi va buning ma‘nosini o‘ylaydi. Buning ma‘nosi esa Iloxim, Sen maqsudimsan va roziliging matlubimdir, deganidir.

“...bu kalimai bozgasht nafi etguvchidirhar xovotirenikim, yaxshi va yamondin kelur, to aning zikri xolis bo‘lsun va oning sirri mosuvodin forig‘ oylanur. Va agar muftadiy badoyati zikri kalimai bozgashtda o‘zidin sidq mavjud topmasa, kerakkim, oni tark etmasun, oning uchunkim, daraja-badaraja sidqning asarlari zohir bo‘lur”[137].

Talabalarga diniy bilimlarni berishning asosi ham ularni hayoti davomida to‘g‘ri yashashi, gunohdan tiyilishi, naqshbandiya tariqatining asosi bo‘lgan poklik, xaromdan hazar qilish kabi hislatlarni rivojlantirish demakdir.

7.«Nigohdosht» (Diqqatlilik). Kishi o‘zini har qanday shaytoniy yomon yo‘llardan pok saqlashi kerakligini uqtirishdir. Nigoh sol. Bu shiorda qalbni xavotirdan saqlash ko‘zda tutilgan. Bu orqali qalbgga Allohning muxabbatidan boshqa narsa kerak emasligi.

“Bu rashha haqida Sa‘dudin Koshg‘ariy shunday deb yozadi:”...bu kalimaning ma‘nosida aytadiki, bir soat, ikki soat yoki undan ko‘p vaqt, imkoni boricha, o‘zini xayolu fikrlardan asrasin, shundan so‘nggina boshqa narsa haqida fikrlasin”.

Xayol inson diqqatini har tomonga chalg‘itadi. Inson fikrini keraksiz hayollar bilan buzmasligi va barcha o‘y-hayollarini yomon fikrlaridan holi qilishga qaratishi kerakdir. Bo‘lg‘usi pedagoglar barcha o‘y-hayollarini asosiy vazifa o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratishi lozim, ma‘nan o‘sib kamolga yetishi, hamda tashqi muhitning keraksiz ta’sirlaridan o‘zini ehtiyot qilishi kerak.

8. «Yoddosht» (Izchillik). Yodga ol. Bu shiorda har lahzada Alloh taoloni yodda tutish zarur. Haq subhanahu va taoloni doimo zavqu-shavq bilan yodda (xotirada) tutib, ogoh bo‘lishdir. Bu inson o‘z diqqatini boshqara boshlaganini ko‘rsatadigan muhim psixologik holat. Ushbu hislatlar talabalarda diqqatini boshqara olish va bor kuchini kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qaratishi kerakligini anglatadi.

Ma‘lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o‘zlari asos solgan rashhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo‘lib,tariqatning 9,10,11-rashhalaridir:

9. «Vuqufi zamoniy» (Zamonaviylik). Zamondan voqif bo‘lmoq. Bu shiorda solih o‘zi yashagan zamonni bilmog‘i va undan unumli foydalanmog‘i ko‘zda tutilgan. Buning ma‘nosi so‘fiy o‘z umridagi har bir daqiqani, soniyani Allohga shukr aytish bilan va uning bandalariga faqat yaxshilik qilish bilan o‘tkazmoqlikni bildiradi. “...vuqufi zamonikim, yo‘l yurguvchilarning korguzorandasi turur, ul tururkim, banda o‘z ahvolig‘a voqif bo‘lsunkim, har

zamonda oning sifati va holi ne turur: mujibi shukr tururmu yo mujibi uzr (Bahouddin Naqshband)”.
Hozirgi kunda talabalar ushbu qoidaga amal qilib zamon bilan xamnafas bo'lishi va fan-
texnika yangiliklaridan, texnologiyalardan foydalana olishi hamda ushbu bilimlarini kasbiy
faoliyatlarida qo'llay olishi kerakligini ko'rsatadi. Zamonlar o'zgaradi va har bir zamonda
asosan insonni o'zi o'zgaradi, uning dunyoqarashi o'zgaradi, lekin fundamental g'oyalar
hamisha barhayot bo'lib qoladi.

10. «Vuqufi adadiy» (Uzviylik)- Adaddan voqif bo'lmoq. Bu shiorda sufiy zikr qilishda
unda talaffuz qilinadigan lafzlarning adadiga alohida e'tibor berish ko'zda tutilgan Adaddan
voqif bo'lmoq. Buning ma'nosi zikr jarayonida tartib, son alohida o'rin tutishligini qayd
etishdan iborat. «..ul zikrda adadni rioya etmakdin iboratdur». Muqaddas duolarni,
kalimalarni zikr qilinishini bilish va unga rioya qilish kerakligini uqtiradi. Bo'lajak pedagoglar
bilim olganda tartib bilan har bir olgan bilimlarni eng boshidan chuqur o'rganmoqliklari,
soddadan murakkabiga tomon qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

11. «Vuqufi qalbiy» (Qalbi poklik) - Qalbdan voqif bo'lmoq. Bu shiorda qalbni
Allohning zikri, fikri va amri ila mashg'ul qilmoq haqida so'z boradi.

Naqshbandiya tariqatida zikr mahfiy bo'ladi, ovoz chiqarilmaydi va buning ma'nosi
so'fiyning zikri qalban bo'lmog'i zarurligini ifodalaydi. Bahouddin Naqshband hazratlari
shunday deb yozadi: "...nafy (inkor) paytida bashariyat vujudi unitiladi, isbot paytida esa
llohiyat jazabasidan hosil bo'lgan tasarruflar ta'siri yorqin his etiladi".

Bo'lg'usi pedagoglar olayotgan bilimlari, bajarayotgan ishlarini qalban his etish va chin
dildan bajarish, bu ishga bor kuch va g'ayratlarini qaratmog'i bu qoidani albatta hayotga
tatbiq etish lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloni. "Sirrul-asror", "Maktubot" / Tarjimon, so'zboshi va lug'at-
izohlar muallifi Otabek Jo'raboyev. – T.: "Movarounnahr" nashriyoti, 2005 yil. – 226 bet. – 125-
bet.
- 2.A.Abdullayev "Tasavvuf va uning namoyondalari" Ilmiy ommabop risola. www. ziiyouz.com
kutubxonasi. 67-68 bb
- 3.Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino
nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004.
- 4.Qilicheva K.Y. Oliy ta'lim tizimida tasavvuf ta'limoti vositasida talabalar ma'naviyatini
shakllantirish. P.f.dokt. diss... – Toshkent: 2009.
- 5.Xalmuxamedova M. A. Naqshbandiya tariqatida kasb-hunar egallashga da'vat/ Academic
Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: pp. 2181-1385
- 6.Naqshbandiya tariqati vositasida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy
kompetentligini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «MALIK PRINT CO», 2022. UDK: 373:
159.9 KBK: 74.00 ISBN 978-9943-7922-2-7 (28.01.2022. TVCHDPI № 10-buyrug'i sonli)